

## BEVOSITA TARJIMADA FRAZEOLOGIZMLAR MA’NOSINI BERISH

*Marxabo Raxmonkulovna Abdullayeva*

*Phd, Oriental universiteti*

*Sattarova Marxabo Utkirbek qizi*

*1 - bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada inglizchadan bevosita tarjimada frazeologizmlar ma’nosini berish muommolari xaqida ma’lumotlar berilgan. Tarjima, bir qarashda, oddiy ish jarayoniga o‘xshasa-da, asar boshqa tilda qayta yaratilar ekan, tarjimon ijodiy vazifa bilan band bo‘lib, muallif singari har bir so‘z, birikma, jumlaning ishonchli bo‘lishi uchun butun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi. Agar u so‘z zamiridagi muallif ko‘rgan narsani ko‘rmas, u his qilgan narsani tuymas ekan, tarjimada so‘z qanchalik maqbul tanlangan bo‘lmasin, ma’no anglashilmay qolaveradi. Chunki tarjimadagi so‘z har jihatdan asliyat so‘ziga monand bo‘lish bilan birga voqelikka zid bo‘lmasligi kerak.

**Kalit so‘zlar:** G‘arb adabiyoti, bevosita tarjima, tarjima muommolari, frazeologizmlar, badiiy asar, tarjima jarayoni.

**Kirish qismi:** G‘arb mamlakatlari adabiyotining ajralmas qismi bo‘lgan Angliya adabiyoti va inglizzabon ijodkorlar sanalgan amerika adabiyoti vakillari asarlarining o‘zbek tiliga tarjimalari haqida gap ketganda, qayd etish lozimki, bunday tarjima asarlari o‘zbek kitobxonlari e’tiborini darhol o‘ziga tortdi va tez orada ularning ko‘pchiligi xalqimizning sevimli asarlariga aylandi.

Tarjimon voqelikni asarda ko‘rsatilgani darajasida bilsagina, badiiy asarda tasvirlangan milliy xususiyatlarni tarjimada ham aynan saqlab qolish yoki o‘zgartirish orqali tarjima tili mansub xalq yashayotgan zamanga ko‘chirish orqali haqqoniy tarjima yarata oladi.

**Asosiy qism:** Voqelikni qayta yaratish metodikasini ishlab chiqish tarjima estetikasining ilk shartlaridan biridir. Gap tarjimonning personajlar, ular o‘rtasidagi konflikt sabablari, voqea sodir bo‘ladigan muhit haqida umuman konkret tasavvurga ega bo‘lishi xususidagina emas, balki tarjimonning ancha keng xabardorligi masalasida boryapti: tasvirlanayotgan voqealar ortida nima turibdi, chinakam xarakterlar, haqiqiy turtki nimadan iborat?

Masalan: Asliyatda “Mrs Rogers’ breath came in quick gasps”.

O‘zbekcha bilvosita tarjimada ushbu frazeologizm qisqa va lo‘nda qilib “Uning yuragi tez ura boshladi” tarzida berilgan.

Bevosita tarjimada: “mister Rojersning nafas olishi tezlashib ketdi (bu suv ostida biroz suzgandan keyin hovuz yuzasiga chiqqanda foydalanadigan nafas turi)”.

Tarjimon o‘zining voqealardan voqif ekanligidan foydalanib, hali yozuvchi aytmay turgan narsani oshkor etib, og‘zidan gullaydi-qo‘yadi. Yana shunday ham bo‘ladiki, tarjimon uslubiy vositalarning o‘zi bilanoq asarning semantik (ma‘noviy) aloqalarini keragidan ancha oldin ochib qo‘yadi.

Asliyatda: “Her face turned green again, her eyelids fluttered”.

Bilvosita tarjimada: “Uning yuzi yashil rangga kirib bo‘lib, qovoqlari qaltirardi”. Yevropa davlatlarida yuzning yashil rangda tuslanishi, qovoqlarning qaltirib kettishi – qattiq qo‘rquvdan keyingi holatni ifodalaydi. O‘quvchiga asarni bilvosita tarjimada havola qilsak, biroz tushunarsiz tuyulishi aniq. Shunday ekan, ushbu jumlaning qo‘rquvdan uning yuzi oqarib, qovog‘i uchib qoldi tarzida bersak, maqsadga muvofiq bo‘lardi. Faqatgina sharq xalqlarida qovog‘i uchsa iborasi muayyan ma‘noni ifodalaydi. Asliyatda: “Before God, I didn't know what it was, sir”.

Bilvosita tarjimasida: “Xudo haqqi qasam ichamanki, men hech narsani bilmagandim» va yana bir jumlada “I swear to God it's the truth” frazeologizmi ham ruscha tarjimasi: «Христом Богом клянусь, это чистая правда» o‘z ma‘nosida berilgan bo‘lsa-da, o‘zbekcha tarjimasida: “non ursin bu haqiqat” tarzida ochib berilgan, o‘zbeklarda ko‘pchilik o‘zaro suhbatda, gapiga boshqalarni ishonirish maqsadida “non ursin”, “til tortmay o‘lay”, “ko‘zim chiqsin” singari iboralarni keltiradi.

Tarjima jarayonida ijodkor birdaniga ikki madaniyat, ikki tilning so‘z va obrazlari ustida ish olib borar ekan, har safar begona so‘zlardan qaysi birini o‘girib, tarjima matniga o‘tkazish mumkinligi, agar mumkin bo‘lsa, so‘z yoki obraz begona negizda o‘z o‘rnini topa olishi haqida o‘ylab ko‘rishi kerak.

Asliyatda: “This fellow Owen whoever he is-Emily Brent interrupted”.

Bilvosita tarjimada: “bu Onim deganlari kim ekan dedi, – Emili Brent”.

Bevosita tarjimada “Bu o‘rtoq Oven (anonim), kim bo‘lishidan qat‘i nazar – Emili Brent shartta gapini”. Bevosita va bilvosita tarjima o‘rtasidagi farqlar shundaki, frazeologizmlar milliylikka asoslangani uchun ularni tarjima qilish hamisha qiyinchilik tug‘dirib, ko‘pincha muayyan muammolar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Odatda, boshqa tilga ularning shakli emas, mazmuni ko‘chadi. Lekin ana shu mazmuni to‘g‘ri ifodalash, u yoki bu frazeologizmning boshqa tildagi muvofiq muqobilini topish uchun ba‘zida bir necha avlod tarjimonlar izlanishlar olib borganlar.

Quyidagi misolda tarjima jarayonida o‘zaro aloqalar kuchaygan va ba‘zi frazeologizmlar boshqasiga o‘zlashib ketaveradi.

Asliyatda: “I've given her a sedative to take”.

Bilvosita tarjimasida: “Men unga suv berdim tinchlanib olish uchun”. Bevosita tarjimada ko‘rish mumkinki, men unga tinchlantiruvchi dori berdim. Ruschadan qilingan bilvosita tarjimada “tinchlantiruvchi dori” so‘zi tushib qoldirilgan va kitobxonlarga tushunarli bo‘lish uchun “suv berdim” shaklida berilgan.

A. Quronbekov soʻz maʼnosi xususida shunday yozadi: “...soʻzlar koʻp maʼnoli boʻlib, ularning eng avvalgi vujudga kelgan “tom maʼnosi”, “asl maʼno”, “toʻgʻridan toʻgʻri maʼno”si deb ataladi. Ulardan keyingi biron-bir maʼno qirrasini bilan oʻxshashlik, yondoshlik jihati bilan paydo boʻlgan maʼnolar “hosila maʼno deyiladi. Bas, shunday ekan, soʻz har bir gap kesimida yo tom maʼnosi bilan, amalda esa koʻpincha “hosila” maʼnosi bilan qatnashadi. Badiiy asarda esa shoir yoki yozuvchi soʻzning hech bir lugʻatda qayd etilmagan yashirin maʼnolarini kashf qiladi”.

Bevosita va bilvosita tarjima asari qiyoslanishida tarjima davrlari oʻrtasidagi farq hisobga olinishi maqsadga muvofiq, albatta, lekin rus tilidan qilingan dastlabki tarjimada shunday qusurlar koʻzga tashlanadiki, bundan agar mutarjim asliyat tiliga murojaat qilib, bevosita unga yondashib ish tutganda, bu xatoliklarga yoʻl qoʻyilmasligi borasida mulohaza tugʻiladi. Zero, rus tili orqali qilingan tarjimada gʻaliz jumlar uchray qoladi. Tarjima uchun umumiy boʻlgan holat, ularning bevosita muloqotlari va birining ikkinchisiga “oqib oʻtish” hududidir. Bu ikki sohilni birlashtiruvchi koʻprik emas, bu ularni bir vaqtning oʻzida birlashtiruvchi va ajratib yuboruvchi daryoning oʻzidir”, deydi P. Nerler. Bu fikrning tasdigʻini quyida koʻrish mumkin: “On the north-west side, towards the coast, the cliffs fell sheer to the sea below, their surface unbroken” .

Rus tilidan bilvosita tarjima: “Uni tintuv qilish unchalik qiyin boʻlmadi. Shimoli-gʻarbda silliq qoya dengizga tik tushgan” .

Inglizcha jumlaning quyidagicha bevosita tarjima qilish mumkin: “Shimoli-gʻarbiy tomonda, qirgʻoqqa qarab, qoyalar pastdagi dengizga toʻgʻri tushkanki, qoyalarning yuzasi buzilmagan”. Bilvosita oʻgirilgan asarda maʼno ham oʻzgarib ketgan.

Yana bir misol: “Then Dr. Armstrong jumped up and went over to him, kneeling beside him. When he raised his head his eyes were bewildered.

‘My God! he’s dead.’

They didn’t take it in. Not at once.

Dead? Dead ? That young Norse God in the prime of his health and strength. Struck down all in a moment”.

Rus tilidan tarjima: “Dastlab Armstrong hushini yigʻib oldi. Shu zahoti Marston tomon otildi. Bir daqiqa oʻtar-oʻtmas uning koʻzlarida qoʻrquv aralash hayrat aks etardi.

Yo parvardigor, u oʻldi! – dedi Armstrong dahshatli boʻgʻiq ovozd.

Oʻldi? Koʻz ochib yumguncha oʻldimi? Vujudidan yoshlik kuchi yogʻilib turgan shimol afsonalaridagi yosh maʼbud-a ?.

Inglizchadan bevosita tarjimasida: “doktor Armstrong sakrab turdi va tiz choʻkib, uning yoniga bordi. Boshini koʻtarganida koʻzlari dovdirab qoldi.

U qoʻrquv bilan pichirlab dedi: “Ey Xudoyim! U oʻlgan”.

Ular buni birdaniga qabul qilishmadi.

–O‘lganmi? O‘lganmi?

Bu yosh Skandinaviya Xudosi kabi kuch-qudratga to‘la va sog‘lom edi. Bir zumda hammasidan yiqildi”.

Tarjimalarda “Skandinaviya Xudo”siga o‘xshatish o‘quvchiga biroz tushunarsiz tuyulsa-da, tarjimon Skandinaviya Xudosiga o‘xshatish ma’nosida farishtani ta’riflagan.

Masalan, asardagi “Xonaga o‘lik sukunat cho‘kdi”, “– Ont ichaman, shprisni o‘g‘irlashdi!” frazeologizmlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi tufayli, ayni vositalar vazifaviy o‘zaro mos kelganlari holda, tarjimada ular bir- birlarini almashtira oladilar. Odamlar orasida keng tarqalgan qasam ichish mazmunidagi “Xudo ursin”, “Qasam ichaman”, “Ont ichaman” degan frazeologizmlar mavjud.

Qasam shakllarini tarjima qilishda ham qator qiyinchiliklarga duch kelinadi. Bayon etilgan muayyan fikrning rostligiga, tutilgan yo‘lning to‘g‘riligiga suhbatdoshni ishontirish, biror narsa yoki harakatning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri, yaxshi yoki yomonligini alohida qayd qilish kabi holatlarda xalqlar qator birliklar yordamida qasam ichadilarki, bunday qasam shakllarining obyektlari odatda kishilar nazarida eng aziz, mo‘tabar, muqaddas narsalar, tushunchalar nomlaridan iborat bo‘ladi.

**Xulosa qismi:** Inglizchadan tarjimada so‘z tanlash muammolari va uning yutuqlari ham tarjimon mahoratiga bog‘liq bo‘lib, tarjimaning barcha qiyinchiliklari, xususan, bir vaqtning o‘zida tarjima qilinadigan va tarjima qilinmaydigan so‘z muammosini keltirib chiqaradi va tarjima yo‘llarini yangi vositalar bilan boyitadi. Mazkur jarayonlarning barchasi bilish va tushunishning o‘zaro bog‘liqligida inson ongida sodir bo‘ladigan til, tafakkur va madaniyat uchligini o‘z ichiga olgan lingvomadaniy kategoriyalarni yuzaga keltiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullayeva R. O‘zbekistonda tarjima iqlimi. O‘zbekiston tarjimashunoslari forumi. – Toshkent: TDSHU, 2020. –400 b.
2. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – М.: «Международное отношение», 1980. – 344 с.
3. Гачечиладзе Г. Введение в теорию художественного перевода. – Тбилиси: Изд-во Тбилисского университета, 1970. –102 с.
4. Хамидов Х., Хатамова Д. Слова-реалии как средство передачи национального своеобразия, Шарқшунослик. – Toshkent: TDShU, 2016. №4. – 105-111 б.
5. TESHABOYEVA Z. et al. A Comparative Analysis Of Phraseological Units In “Baburname” And Their Different English Translations //Philology Matters. – 2019. – Т. 2019. – №. 1. – С. 102-108.

6. Teshaboyeva Z. TRANSLATIONS OF PHRASEOLOGICAL UNITS AND PROVERBS OF “BOBURNOMA” INTO ENGLISH //Paradigmata Poznání. – C. 74.

7. Abdullayeva Marxabo Raxmonkulovna. Milliy koloritni ifodalovchi frazeologizmlar tarjimasini muammolari (Agata Kristi asarlarining o‘zbekcha tarjimalari misolida) 2023/12 Fil.fan bo'yicha falsafa.dok.. (PhD) Diss... Avtoreferati. Volume1.Issue 1. Pages 56.

8. ABDULLAYEVA MARXABO RAXMONKULOVNA. (2023). ESP/EAP O‘QUVCHILARINING MAXSUS LUG‘ATLARGA BO‘LGAN EHTIYOJLARI . International Scientific and Current Research Conferences, 1(1), 291–299. <https://doi.org/10.37547/geo-56>

9. Abdullayeva, M. R. (2022). Convey the national spirit in translations. In International Scientific and Practical Conference" Modern Psychology and Pedagogy: problems and solutions", ANGILYA.